

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLAR

*Andijon viloyati Shahrixon tuman*

*58-IDUM ning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Mahkamova Xurshidaxon**

**Anotatsiya:** Darslarda didaktik o‘yinlarning ahamiyati, darslardagi o‘rni turlari haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiya, didaktika, zamonaviy texnologiya, konseptual o‘yin, domino, maqollar zanjiri.

Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion zamonaviy o‘qitishning metodikasi barkamol, komil insonning madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili va adabiyot darslaridagi interfaol usullar o‘quvchilarni harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Ta’lim-tarbiya jarayonida yillar davomida qo‘llanilib kelinayotgan an’anaviy ta’lim o‘rniga o‘qitishning ilg‘or shakllari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar singari bir qator yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Xo‘sh, pedagogik texnologiyalar biz pedagoglarga qanday qulaylik va imkoniyatlar yaratib berayotir? Birinchidan, zerikarli darslar o‘rniga o‘quvchining ijodiy faolligini amalga oshiruvchi darslar; Ikkinchidan, darslardagi maksimal darajadagi faollikka erishish imkoniyati; Uchinchidan, o‘qituvchi energiyasining tejalishi; To‘rtinchidan, o‘qituvchi shaxsida dars mashg‘ulotidan qoniqish hissining yuzaga kelishi; Beshinchidan, o‘quvchilarning o‘tilayotgan mavzuni o‘zlashtirishi yaxshi bo‘lishining ta’minlanishi va h.k. Biroq, pedagogik texnologiyalarning barchasini ham kimyo fanini o‘qitishga tadbiiq qilinishi biroz muammolar tug‘diradi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida talim berishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy o‘quv-uslubiiy majmualarini yaratish va o‘quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash umumiiy o‘rta ta’limning asosiiy shartlaridan biri sifatida belgilangan. Ilg‘or

pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishini oshiradi. Pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich sinflardan boshlaboq qo'llash ancha yaxshi samara beradi. Boshlang'ich sinf bola hayotida muhim o'rin tutadi. Bu davrda ta'limning pedagogik texnologiyalar asosida qiziqarli talqin etilishi o'quvchini ta'lim jarayonida faollashtiradi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

- Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:
  - o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
  - o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ–muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
  - shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
  - hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
  - o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
  - shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
  - insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
  - o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga ko'ra uch guruhga bo'ldik.

Didaktik o'yinlar: tinch o'yinlar, harakatli o'yinlar, aralash tipdagi o'yinlar.

Adabiyot darslarida quyidagi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. "Meni tushun" , "Adabiy muzey", "Hammualiflar", "Domino", "Maqollar zanjiri", "Davomini top", "Sirli sandiq", "Topqirlik bahsi", "Konseptual salohiyat" "Nazariy tahlil", "Ertakdagi qahramon" kabi o'yinlardan foydalanilsa o'quvchilarning faolligi oshadi. Darsga qo'yilgan asosiy talablardan biri – ta'lim metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog'lab olib borish samaradorligini oshirishdir.

Konseptual o'yinlar. Adabiyot fanida bu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki adabiyot darslarining maqsad va vazifalarini o'qituvchi to'g'ri idrok etsa, o'tilgan mavzular bo'yicha savol va topshiriqlarni tuzishda faktologik (ya'ni tuzilgan savollarning barchasiga darslikda javob bor degani) usulini qo'llamaydi. Bu o'yinning ahamiyati iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar aniqlanadi. O'smir yoshdagi o'quvchilar she'r va g'azallarni nazariy hamda mazmuniy badiiy tahlil qilish orqali mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Sayidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati. "Xalq ta'limi", 1999-yil
2. Respublikaning "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" – T: 1997-yil.
3. I.Rajabova Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. – Toshkent Tamaddun, 2010.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)